

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI**

**YETIM BOLALAR VA OTA-ONA QARAMOG'IDAN MAHRUM BO'LGAN BOLALARНИ
TARBIYALASHNING TUBDAN YANGILANGAN TIZIMINI JORIY ETISH CHORA-
TADBIRLARI TO'G'RISIDA**

Yetim bolalar va ota-onalari qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarini tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish, ularning barkamol avlod sifatida shakllanishi hamda ijtimoiy moslashuvini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, yetim bolalar va ota-onalari qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash masalalari bo'yicha keng jamoatchilik bilan o'tkazilgan muhokama natijalari ijrosini ta'minlash maqsadida:

1. Vazirlar Mahkamasi, Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi va Milliy gvardiyaning "Mehribonlik" uylari, Bolalar shaharchalari, oilaviy bolalar uylari va Sog'liqni saqlash vazirligi tizimining Bolalar uylarini (keyingi o'rinnlarda — o'quv-tarbiya muassasalarini) Milliy gvardiyaga biriktirish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin.

Milliy gvardiya "SOS — O'zbekiston bolalar mahallalari" uyushmasining bolalar mahallalari bilan hamkorlik o'rnatilsin.

2. Milliy gvardiyaga quyidagi qo'shimcha vazifalar yuklansin:

o'quv-tarbiya muassasalarining tarbiyalanuvchilarini ota-onasi yoki ularning o'rnnini bosuvchi shaxslarga qaytarish, vasiy yoki homiy tayinlash, farzandlikka berish va joylashtirishning boshqa shakllarini qo'llash choralarini ko'rish;

yetim bolalar va ota-onalari qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarini moddiy, huquqiy va psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash;

o'quv-tarbiya muassasalarida sifatli ta'lim va tarbiya jarayonini yo'lga qo'yishga, ularning maishiy shart-sharoitlari yaxshilanishiga, shuningdek, tarbiyalanuvchilarining bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda ularning intellektual, jismoniy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga ko'maklashish;

yetim bolalar va ota-onalari qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun ma'naviy-ma'rifiy va madaniy tadbirlarni tashkil etish;

zamonaviy usul va shakllardan foydalangan holda jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk va dunyoqarashi keng yoshlarni shakllantirish, yetim bolalar va ota-onalari qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarini sport turlariga qiziqtirish va jalb etish.

3. Milliy gvardiya tarkibida:

markaziy devoni tuzilmasida o'quv-tarbiya muassasalarida yoshlarning ta'lim va tarbiya olish jarayonlarini hamda ularning bo'sh vaqtini samarali tashkil etishga mas'ul Milliy gvardiya qo'mondonining o'rinnbosari lavozimi joriy etilsin;

Jamoat xavfsizligi universitetida "Harbiy vatanparvarlik, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya va yoshlarni ijtimoiy ishslash" kafedrasi tashkil etilsin.

4. Belgilansinki:

oilaviy bolalar uylari va Bolalar uylariga hamda vasiylikka, homiylikka yoki oilaga tarbiyaga olingan (patronat) yetim bolalarga (yigirma besh yoshga to'lmagan) Milliy gvardianing harbiy xizmatchi va xodimlari biriktiriladi;

biriktirilgan harbiy xizmatchi va xodimlar vasiylik va homiylik organlari bilan hamkorlikda bir oyda kamida bir marotaba yetim bolalar va ota-onalari qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar bilan suhbatlar o'tkazish asosida ularning ta'lim-tarbiya olish ahvolini va maishiy shart-sharoitlarini o'rganadi, shuningdek, mavjud muammolarni bartaraf etish, ularni ota-onasi yoki ularning o'rnnini bosuvchi shaxslarga qaytarish, vasiy yoki homiy tayinlash, farzandlikka berish va joylashtirishning boshqa shakllarini qo'llash choralarini ko'rib boradi.

5. Xalq ta'limi vazirligi (Sh. Shermatov) ikki oy muddatda:

a) Milliy gvardiya (R. Djurayev), Oliy va o‘rtalim maxsus vazirligi (A. Toshkulov), Turizm va sport vazirligi (U. Azamov) hamda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (Sh. Sadikov) bilan birgalikda:

yetim bolalar va ota-onalari qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarga tarbiya berish, ularni fan, axborot texnologiyalari, xorijiy tillar, kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitish, boshlang‘ich harbiy tayyorlarlik va sport bilan shug‘ullanishlarini tashkil etish bo‘yicha yangi tizimni amaliyatga tatbiq etsin;

o‘quv-tarbiya muassasalari tarbiyalanuvchilari o‘rtasida ular tomonidan erishilgan natijalarini baholash orqali o‘quv-tarbiya muassasalarining reyting tizimini joriy qilsin;

b) Milliy gvardiya (R. Djurayev), Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (Sh. Sadikov) bilan birgalikda o‘quv-tarbiya muassasalarining Toshkent shahridagi Inxa universiteti, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, IT-parklar bilan o‘zaro aloqalar o‘rnatishini ta’minlasin hamda ular tomonidan o‘quv kurslari tashkil etilishi choralarini ko‘rsin;

v) yetim bolalar va ota-onalari qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar, shuningdek, vasiylikka va homiylikka olingen bolalar va oilaga tarbiyaga berilgan (patronat) bolalar bo‘yicha yaratilgan axborot tizimida ma’lumotlarni to‘liq shakllantirgan holda Milliy gvardiya, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga ushbu tizimdan foydalanish huquqini bersin;

g) Milliy gvardiya (R. Djurayev), Turizm va sport vazirligi (U. Azamov), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda:

o‘quv-tarbiya muassasalari tarbiyalanuvchilarini har yili kamida ikki marotaba o‘qishdan bo‘sh vaqtlarida O‘zbekiston bo‘ylab sayohatga olib chiqish dasturini tasdiqlasin. Bunda, sayohat davomida ichki ishlar organlari hamrohligi Ichki ishlar vazirligi mablag‘lari hisobidan hamda o‘quv-tarbiya muassasalari tarbiyalanuvchilarini sayohatga olib chiqish (transport, yashash va ovqatlanish) bilan bog‘liq xarajatlar o‘quv-tarbiya muassasalariga ajratilgan budget mablag‘lari hisobidan qoplanadi;

o‘quv-tarbiya muassasalari tarbiyalanuvchilarini uchun yakka kurash, ot sporti, futbol, suzish, tennis, shaxmat kabi sport turlari bo‘yicha sport to‘garaklarini tashkil etish yuzasidan chora-tadbirlar rejasini tasdiqlasin.

6. Milliy gvardiya (R. Djurayev) Xalq ta’limi vazirligi (Sh. Shermatov) bilan birgalikda 2022-yil 1-yanvarga qadar Jamoat xavfsizligi universitetida o‘quv-tarbiya muassasalari tarbiyachilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashni yo‘lga qo‘ysin.

7. Oliy va o‘rtalim maxsus vazirligi (A. Toshkulov) Xalq ta’limi vazirligi (Sh. Shermatov) va Milliy gvardiya (R. Djurayev) bilan birgalikda har yili 1-sentabrga qadar yangi o‘quv yili uchun oliy ta’lim muassasalari yetakchi professor-o‘qituvchilarining “Mehribonlik” uylari va Bolalar shaharchalarining tarbiyalanuvchilarini axborot texnologiyalari, xorijiy tillar, aniq, tabiiy va boshqa fanlarga o‘qitish bo‘yicha fakultativ va to‘garak mashg‘ulotlarini, “davra suhbatlarini”, fan musobaqalarini tashkil etish dasturini tasdiqlasin.

8. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari mutasaddi vazirlik va idoralar bilan birgalikda uch oy muddatda “Mehribonlik” uylari va Bolalar shaharchalarini zarur sport anjomlari (bolalarning sport bilan shug‘ullanishlari uchun barcha sharoitlarni yaratgan holda), 20 tadan zamonaviy kompyuter to‘plami (uzluksiz tezkor Internet tarmog‘iga ulagan holda), tikuvchilik, oshpazlik, qandolatchilik va boshqa sohadagi to‘garaklarni tashkil etishga ixtisoslashgan xonalarning zarur moddiy-texnik bazasi hamda avtobuslar va mikroavtobuslar bilan ta’minlasin.

9. Oliy Majlis Senatiga (T. Narbayeva) mutasaddi vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda quyidagilarni nazarda tutuvchi kompleks chora-tadbirlar rejasini tasdiqlash tavsiya etilsin:

o‘quv-tarbiya muassasalari tarbiyalanuvchilarining muammolarini o‘rganish hamda hal etish, ularning orzu-istikclarini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish bo‘yicha “Mehr daftari” tizimini hayotga tatbiq etish;

yetim bolalar va ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni farzandlikka, vasiylikka (homiylikka, patronatga) oladigan oilalarda tarbiyalashni rag‘batlantirish amaliyotini joriy etish hisobiga o‘quv-tarbiya muassasalarida tarbiyalanuvchilarni bosqichma-bosqich farzandlikka, vasiylikka (homiylikka, patronatga) oladigan oilalarda tarbiyalashga o‘tkazish choralarini ko‘rish;

bolalarning ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lishining sabablarini o‘rganish va aniqlangan muammolarni bartaraf etish.

10. Belgilansinki:

2021-yil 1-noyabrdan boshlab “Mehr daftari” tizimi doirasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni moliyalashtirish uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan “Mehr daftari”ga kiritilgan yetim bolalar va ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armalari tashkil etiladi;

2022-yil 1-yanvardan boshlab alkogol mahsulotlarining (pivo va tabiiy vino bundan mustasno) ulgurji savdosi bilan shug‘ullanuvchi korxonalar sof tushumidan ajratmalar miqdori besh foizdan uch foizga pasaytiriladi;

2022-yil 1-yanvardan boshlab alkogol mahsulotlarining (pivo va tabiiy vino bundan mustasno) ulgurji savdosi bilan shug‘ullanuvchi korxonalar sof tushumining uch foiz miqdoridagi ajratmalar budgetga to‘lanadigan soliq va yig‘imlarga tenglashtiriladi, ushbu ajratmalar soliq organlari tomonidan undiriladi va import qilinadigan alkogol mahsulotlariga nisbatan tatbiq etilmaydi;

“Mehr daftari”ga kiritilgan yetim bolalar va ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasining mablag‘lari homiylik mablag‘lari, 2022-yil 1-yanvardan boshlab alkogol mahsulotlarining (pivo va tabiiy vino bundan mustasno) ulgurji savdosi bilan shug‘ullanuvchi korxonalar sof tushumining uch foizi miqdoridagi ajratmalar, shuningdek, qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan shakllantiriladi.

11. O‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi hamda Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligining quyidagi takliflariga rozilik berilsin:

a) Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligini o‘quv-tarbiya muassasalarida tarbiyalanayotgan, vasiylikka, homiylikka va oilaga tarbiyaga olingan (patronat) qizlarning ta’limtarbiyasi, ularni balog‘atga, turmushga tayyorlash ishlariga mas’ul etib belgilash hamda Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi tomonidan:

har yili kamida ikki marotaba o‘quv-tarbiya muassasalarida tarbiyalanayotgan, vasiylikka, homiylikka va oilaga tarbiyaga olingan (patronat) qizlarning ijtimoiy holatini o‘rganib borish;

o‘quv-tarbiya muassasalarida tarbiyalanayotgan, vasiylikka, homiylikka va oilaga tarbiyaga olingan (patronat) qizlarni “Mehr daftari”ga kiritib, ularni qiynatayotgan masalalarni joyida hal qilishga hamda o‘quv-tarbiya muassasalaridan keyingi hayotida o‘z o‘rnini topishiga har tomonlama ko‘maklashish;

b) Xalq ta’lim vazirligi va Milliy gvardiya tavsiyasiga binoan har yili 25 nafar o‘quv-tarbiya muassasalari tarbiyachilarini O‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi tizimidagi sanatoriylarda bepul davolash.

12. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tuman (shahar) Kengashlariga muntazam ravishda “Mehr daftari”ga kiritilgan bolalar bilan ishslashga mas’ul davlat organlari va tashkilotlarining hisobotlarni eshitib borish amaliyotini yo‘lga qo‘yish tavsiya etilsin.

13. Bosh prokuratura (N. Yo‘ldoshev) o‘quv-tarbiya muassasalarida tarbiyalanayotgan voyaga yetmagan farzandi uchun ota-onalardan alimentlarning o‘z vaqtida va to‘liq undirilishini ta’milasin.

14. Ichki ishlar vazirligi Milliy gvardiyaga biriktirilgan Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika o‘g‘il bolalar o‘quv-tarbiya muassasasining tarbiyalanuvchilari bilan ishslash jarayonlariga ko‘maklashsin.

15. Ichki ishlar vazirligi va Xalq ta’limi vazirligining:

Toshkent viloyati Chinoz tumanidagi 2-son kasb-hunar maktabini ushbu tumandagi 39-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi binosiga;

Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika qiz bolalar o‘quv-tarbiya muassasasini Chinoz tumanidagi 2-son kasb-hunar maktabining bo‘sheydigan binosiga ko‘chirish to‘g‘risidagi takliflariga rozilik berilsin.

16. Moliya vazirligi (T. Ishmetov);

bir oy muddatda “Mehribonlik” uylari va Bolalar shaharchalarida xarajatlar smetasi tuzilishi va ijro etilishini, ish haqining hisoblanishi va to‘lanishini, tovar, ish va xizmatlarning xarid qilinishini, budjet va budgetdan tashqari mablag‘lar hisobining yuritilishini ta’minlashga ko‘maklashish maqsadida “Mehribonlik” uylari va Bolalar shaharchalariga ikki nafardan hududiy moliya organlarining malakali xodimlarini biriktirsin;

mazkur qaror ijrosi bilan bog‘liq xarajatlar uchun mablag‘larni tegishli vazirlik va idoralarning asoslantirilgan hisob-kitoblari asosida 2021-yilda Davlat budjeti hisobidan ajratilishini ta’minasin hamda 2022-yildan boshlab Davlat budjeti parametrlarida ko‘zda tutsin.

17. O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi va boshqa ommaviy axborot vositalariga:

mazkur qarorning mazmun-mohiyatini, shuningdek, yetim bolalar va ota-onasi qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni farzandlikka, vasiylikka (homiylikka va patronatga) olish hamda oilaviy bolalar uylarini tashkil etish tartibini, uning ijtimoiy ahamiyatini jamoatchilikka keng yoritish;

jamiyatda ayrim ota-onalar tomonidan o‘z farzandlarini mehribonlik va bolalar uylariga topshirishlari sabablarini keng tahlil qilgan holda bunday holatlarning oldini olishga qaratilgan ijtimoiy roliklarni namoyish etish, davra suhbatlari va muhokamalar tashkil etish tavsiya etilsin.

18. Yetim bolalar va ota-onasi qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” [ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

19. Xalq ta’limi vazirligi (Sh. Shermatov) manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birlashtirishda ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga mazkur qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

20. Mazkur qaror ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib Milliy gvardiya qo‘mondoni R.M. Djurayev, xalq ta’limi vaziri Sh.H. Shermatov hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari belgilansin.

Qaror ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas’ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari B.A. Musayev va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisining o‘rinbosari D.M. Kenjayev zimmasiga yuklansin.

Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga har chorakda axborot berib borilsin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2021-yil 9-avgust,
PQ-5215-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagи PQ-5215-son qaroriga
ILOVA

Yetim bolalar va ota-onasi qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish bo‘yicha

“YO‘L XARITASI”

| T/r | Tadbirlarning nomlanishi | Amalga oshirish shakli | Bajarish muddati | Mas’ul ijrochilar |
|-----|---|------------------------|--------------------|--|
| 1. | Yetim bolalar va ota-onasi qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar, shuningdek vasiylikka va homiylikka olingan bolalar va oilaga | Amaliy chora-tadbirlar | 2021-yil 10-oktabr | Xalq ta’limi vazirligi (Sh. Shermatov) |

| | | | | |
|----|--|-------------------------|--------------------|---|
| | tarbiyaga berilgan (patronat) bolalar bo'yicha yaratilgan axborot tizimida ma'lumotlarni to'liq shakllantirgan holda Milliy gvardiya, Qoraqalpog'ston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga ushbu tizimdan foydalanish huquqini berish. | | | |
| 2. | "Mehribonlik" uylari, Bolalar shaharchalari, oilaviy bolalar uylari va Sog'liqni saqlash vazirligi tizimining Bolalar uylarida (keyingi o'rnlarda — o'quv-tarbiya muassasalari) tarbiyalanuvchi bolalarga tarbiya berish, ularni fan, axborot texnologiyalari, xorijiy tillar, kasb-hunar va tadbirdorlikka o'qitish, boshlang'ich harbiy tayyoragarlik va sport bilan shug'ullanishlarini tashkil etish bo'yicha yangi tizimni amaliyatga tatbiq etish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2021-yil 10-oktabr | Xalq ta'limi vazirligi (Sh. Shermatov), Milliy gvardiya (R. Djurayev), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (A.Toshkulov), Turizm va sport vazirligi (U. Azamov), Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (Sh. Sadikov) |
| 3. | O'quv-tarbiya muassasalari tarbiyalanuvchilarini o'rtasida ular tomonidan erishilgan natijalarni baholagan holda, o'quv-tarbiya muassasalarining reyting tizimini joriy etish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2021-yil 10-oktabr | Xalq ta'limi vazirligi (Sh. Shermatov), Milliy gvardiya (R. Djurayev), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (A.Toshkulov), Turizm va sport vazirligi (U. Azamov), Axborot tehnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (Sh. Sadikov) |
| 4. | Jamoat xavfsizligi universiteti tomonidan o'quv-tarbiya muassasalari tarbiyachilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashni yo'lga qo'yish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2022-yil 1-yanvar | Milliy gvardiya (R. Djurayev), Xalq ta'limi vazirligi (Sh. Shermatov), Jamoat xavfsizligi universiteti (M. Rustambayev) |
| 5. | Har yili kamida ikki marotaba o'quv-tarbiya muassasalari tarbiyalanuvchilarini o'qishdan bo'sh vaqtlarida O'zbekiston bo'ylab (Buxoro, Samarqand, Xiva, | Chora-tadbirlar dasturi | 2021-yil 10-oktabr | Xalq ta'limi vazirligi (Sh. Shermatov), Milliy gvardiya (R. Djurayev), |

| | | | | |
|-----|--|----------------------------------|----------------------------|---|
| | Shahrisabz, Qo‘qon, Toshkent, Termiz va boshqa shaharlarga) sayohatga olib chiqish. | | | Turizm va sport vazirligi (U. Azamov), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| 6. | O‘quv-tarbiya muassasalarini tarbiyalanuvchilari uchun yakka kurash, ot sporti, futbol, suzish, tennis, shaxmat kabi sport turlari bo‘yicha sport to‘garaklarini tashkil etish. | Chora-tadbirlar rejasи | 2021-yil 10-oktabr | Xalq ta’limi vazirligi (Sh. Shermatov), Milliy gvardiya (R. Djurayev), Turizm va sport vazirligi (U. Azamov), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| 7. | O‘quv-tarbiya muassasalarining Toshkent shahridagi Inxa universiteti, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, IT-parklar bilan o‘zaro aloqalar o‘rnatishini ta’minlash hamda ular tomonidan o‘quv kurslari tashkil etilishi choralarini ko‘rish. | Chora-tadbirlar dasturi | 2021-yil 10-oktabr | Xalq ta’limi vazirligi (Sh. Shermatov), Milliy gvardiya (R. Djurayev), Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (Sh. Sadikov) |
| 8. | Oliy ta’lim muassasalarini yetakchi professor-o‘qituvchilarining “Mehribonlik” uylari va Bolalar shaharchalari tarbiyalanuvchilarini axborot texnologiyalari, xorijiy tillar, aniq, tabiiy va boshqa fanlarga o‘qitish bo‘yicha fakultativ va to‘garak mashg‘ulotlarini, “davra suhbatlarini”, fan musobaqalarini tashkil etish. | Chora-tadbirlar dasturi | Har yili 1-sentabrga qadar | Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (A.Toshkulov), Xalq ta’limi vazirligi (Sh. Shermatov), Milliy gvardiya (R. Djurayev) |
| 9. | O‘quv-tarbiya muassasalarini tarbiyalanuvchilarini o‘qitish bilan shug‘ullanuvchi yetakchi professor-o‘qituvchilarini moddiy rag‘batlantirish tizimini yo‘lga qo‘yish. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2021-yil 1-oktabr | Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (A.Toshkulov), Moliya vazirligi (T. Ishmetov) |
| 10. | O‘quv-tarbiya muassasalarini zarur sport anjomlari (bolalarning sport bilan shug‘ullanishlari uchun barcha sharoitlarni yaratgan holda), 20 tadan zamonaviy kompyuter to‘plami (uzluksiz tezkor Internet tarmog‘iga ulagan holda), | Amaliy chora-tadbirlar | 2021-yil 10-noyabr | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |

| | | | | |
|-----|---|----------------------------------|--------------------|--|
| | tikuvchilik, oshpazlik, qandolatchilik va boshqa sohadagi to‘garaklarni tashkil etishga ixtisoslashgan xonalarning zarur moddiy-texnik bazasi hamda avtobuslar va mikroavtobuslar bilan ta’minlash. | | | |
| 11. | Maxsus mактаб va mактаб-internatlar faoliyatini va ularda tarbiyalanayotgan bolalarning holatini o‘рганиш, aniqlangan muammolarni bartaraf etish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga takliflar kiritish. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2021-yil 15-oktabr | Vazirlar Mahkamasi (B. Musayev), manfaatdor vazirlik va idoralar |
| 12. | Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazining faoliyatini qayta ko‘rib chiqish va uni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2021-yil 15-oktabr | Vazirlar Mahkamasi (B. Musayev), manfaatdor vazirlik va idoralar |
| 13. | “Raqamli Avlod” loyihasi bilan “Mehribonlik” uylarini bosqichma-bosqich qamrab olish. Bunda, “Mehribonlik” uylarida axborot texnologiyalari (IT) bo‘yicha zamonaviy kasblarga yo‘naltiruvchi “Raqamli Avlod” sinf xonalarini tashkil etish va dasturlash, 2D va 3D dizayn, robototexnika, raqamli media-marketing va frilansing bo‘yicha darslarni yo‘lga qo‘yish. | Chora-tadbirlar dasturi | 2021-yil 1-oktabr | Prezident ta’lim muassasalari agentligi (X. Umarova), Xalq ta’limi vazirligi (Sh. Shermatov), Milliy gvardiya (R. Djurayev), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| 14. | O‘quv-tarbiya muassasalari tarbiyalanuvchilarining ushbu muassasalar joylashgan hududdagi oilaviy tibbiyot poliklinikalarida alohida hisobi yuritilishini, ularga tibbiyot brigadasi biriktirilishini va har yili ikki marotaba tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilishini yo‘lga qo‘yish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2021-yil 15-oktabr | Sog‘liqni saqlash vazirligi (A. Xadjibayev), Xalq ta’limi vazirligi (Sh. Shermatov), Milliy gvardiya (R. Djurayev) |
| 15. | O‘quv-tarbiya muassasalari tarbiyalanuvchilarini har oyda kamida ikki marotaba teatr, konsert va muzeylarga tashrif buyurishini hamda san’at ustalarining, taniqli yozuvchi va adiblarning “Mehribonlik” uylari va Bolalar shaharchalariga kelib, madaniy va ma’rifiy tadbirlar o‘tkazishini tashkil etish. | Amaliy chora-tadbirlar | Doimiy | Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov), Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi (M. Xodjimatov), Yozuvchilar uyushmasi (S. Saidov), O‘zbekiston Kasaba uyushmaları federatsiyasi |

| | | | | (Q. Rafikov) |
|-----|--|--|--------------------|---|
| 16. | Har yili o‘quv-tarbiya muassasalarining 25 nafar tarbiyachilarini O‘zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi tizimidagi sanatoriylarda bepul davolash. | Amaliy chora-tadbirlar | Doimiy | Kasaba uyushmalari Federatsiyasi (K. Rafikov) Milliy gvardiya (R. Djurayev) |
| 17. | “Mehr daftari”ga kiritilgan yetim bolalar va ota-onalarning qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armalari faoliyatini tashkil etishni nazarda tutuvchi Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasini ishlab chiqish. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2021-yil 10-oktabr | Xalq ta’limi vazirligi (Sh. Shermatov), Milliy gvardiya (R. Djurayev), Moliya vazirligi (T. Ishmetov) |
| 18. | “Mehr daftari”ga kiritilgan yetim bolalar va ota-onalarning qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armalarini tashkil etish. | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari qarori | 2021-yil 1-noyabr | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| 19. | Milliy gvardiya talabnomasiga asosan “Mehribonlik” uylari va Bolalar shaharchalari uchun IP tarmoqlararo video qayd etish jihozlari (VPN) hamda idoralararo ma’lumotlar uzatish tarmog‘i tarifi bo‘yicha L3-VPN aloqa kanallarini ajratish. | Amaliy chora-tadbirlar | Talabnomaga binoan | Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (Sh. Sadikov) |
| 20. | Yetim bolalar va ota-onalarning qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni qo‘llab-quvvatlashga oid normativ-huquqiy hujjatlarni to‘liq xatlovdan o‘tkazish hamda bir-birini takrorlovchi, o‘z ahamiyatini yo‘qotgan va mazkur qarorga zid normalarni bekor qilish yuzasidan takliflar ishlab chiqish. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi | 2021-yil 1-noyabr | Adliya vazirligi (R. Davlatov), Bosh prokuratura (N. Yo‘ldoshev), Xalq ta’limi vazirligi (Sh. Shermatov), Milliy gvardiya (R. Djurayev) |
| 21. | 2021-yilga qadar uy-joy ajratilgan deb ko‘rsatilgan 610 nafar yetim bolalar va ota-onalarning qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning uy-joylari holatini o‘rganib chiqqan holda, ulardan belgilangan sanitariya me’yorlariga va texnik me’yorlarga, qonun hujjatlarda nazarda tutilgan boshqa talablarga javob bermaydigan uy-joylarda yashayotgan yetim bolalar va ota-onalarning qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni boshqa uy-joylarga ijara asosida ko‘chirish va ularga uy-joy uchun ijara | Amaliy chora-tadbirlar | 2021-yil 1-noyabr | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimligi, Xalq ta’limi vazirligi (Sh. Shermatov) |

| | | | | |
|-----|--|----------------------------|-------------------------|---|
| | to‘lovlарини махалий бюджетнинг қо‘шимча манбалари исобидан компенсатсиya qilish choralarini ko‘rish. | | | |
| 22. | “Mehribonlik” uylari va Bolalar shaharchalariga ikki nafardan hududiy moliya organlarining malakali xodimlarini biriktirish. | Amaliy chora- tadbirlar | 2021-yil 10- sentabr | Moliya vazirligi (T. Ishmetov) |
| 23. | “2021-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to‘g‘risida”gi Qonunga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishni nazarda tutuvchi qonun loyihasini ishlab chiqish. | Qonun loyihasi | 2021-yil 10- oktabr | Moliya vazirligi (T. Ishmetov) |
| 24. | Qarorning mazmun-mohiyatini keng yoritish bo‘yicha media-reja tasdiqlash. | Media-reja | 1 kun muddatda | Vazirlar Mahkamasи (B. Musayev), Xalq ta’limi vazirligi (Sh. Shermatov), Milliy gvardiya (R. Djurayev) |

(Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 10.08.2021-y., 07/21/5215/0782-son)